O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI

DTPI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI
DENOV INSTITUTE OF ENTREPRENEURSHIP AND PEDAGOGY
2020

SHEROBOD DOSTONCHILIK ADABIY MAKTABINING YANGI O‘ZBEKISTON MA’NAVIY-MADANIY TARAQQIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

ISBN: 978-9910-572-51-7

(Ilmiy maqolalar to‘plami)

UDK: 398.85 (075.8)
KBK: 84.55-7
X 74

Sherobod dostonchilik adabiy maktabining Yangi O‘zbekiston ma’naviy-madaniy taraqqiyotida tutgan o‘rni / (Ilmiy maqolalar to‘plami) – T.: “LAVITA PRINT” nashriyoti, 2025. – 136 b.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Nasiba Xo‘janova, Sitora Odilova

Mas’ul muharrir:

Nasim Ochilov
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Normat Yo‘ldoshev
filologiya fanlari doktori, dotsent

Feruza Sultonqulova
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Ushbu maqolalar to‘plami “**Sherobod dostonchilik adabiy maktabining Yangi O‘zbekiston ma’naviy-madaniy taraqqiyotida tutgan o‘rni**” nomi ostida tayyorlandi va O‘zbekiston Respublikasi madaniy merosining muhim qismi bo‘lgan dostonchilik san’ati sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bag‘ishlangan.*

To‘plamda Sherobod maktabining tarixiy rivojlanishi, uning asoschilari, an’anaviy doston ijrochiligining o‘ziga xos xususiyatlari va bugungi kundagi ahamiyati batafsil yoritilgan. Maqolalar milliy madaniyatimizni asrash va rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari doirasida amalga oshirilgan ilmiy ishlanmalar asosida tayyorlandi.

Mazkur nashr pedagoglar, madaniyat xodimlari, talabalar va ilmiy tadqiqotchilar uchun muhim manba bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining madaniy merosini saqlash va targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

ISBN: 978-9910-572-51-7

© “LAVITA PRINT” nashriyoti, 2025-y.

O‘zbek olimlari – o‘zbek folklorining Turkiyadagi targ‘ibotchilari

Abdumurod Tilavov,
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek folklorining, xususan dostonchilik an’anasining Turkiyada o‘rganilishi, nashr qilinishi va ommaga taqdim etilishida o‘zbek olimlarining tutgan o‘rni yoritiladi. Selami Fedakar, To‘ra Mirzayev, Jabbor Eshonqulov, Shomirza Turdimov, Tohir Qahhor kabi taniqli folklorshunoslar faoliyati misolida o‘zbek og‘zaki ijodining xalqaro miqyosdagi ilmiy talqini, tarjimasi va ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, ayrim ilmiy ishlarga nisbatan bildirilgan tanqidiy qarashlar ham o‘rin olgan bo‘lib, xorijiy akademik muhitda o‘zbek folklorini yuqori saviyada taqdim etish masalasi alohida urg‘ulanadi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek folklori, doston, Turkiya, ilmiy hamkorlik, tarjima, xalqaro targ‘ibot, To‘ra Mirzayev, Selami Fedakar, Jabbor Eshonqulov.*

Annotation: *This article explores the significant role of Uzbek scholars in studying, publishing, and promoting Uzbek folklore–particularly epic traditions–in Turkey. It analyzes the scholarly activities of noted folklorists such as Selami Fedakar, To‘ra Mirzayev, Jabbor Eshonqulov, Shomirza Turdimov, and Tohir Qahhor, emphasizing the translation and academic reception of Uzbek oral heritage in the Turkish intellectual sphere. The article also includes a critical overview of selected research and stresses the need for academic precision when representing Uzbek folklore internationally.*

Keywords: *Uzbek folklore, epic traditions, Turkey, academic cooperation, translation, international promotion, To‘ra Mirzayev, Selami Fedakar, Jabbor Eshonqulov.*

Аннотация: *В статье рассматривается значительная роль узбекских учёных в изучении, публикации и популяризации узбекского фольклора, особенно эпических традиций, в Турции. Анализируются научные исследования таких выдающихся фольклористов, как Селами Федакар, Тура Мирзаев, Джаббор Эшонкулов, Шомирза Турдимов и Тахир Каххар. Особое внимание уделяется переводу узбекского устного наследия, его*

восприятию в турецкой научной среде, а также критическим замечаниям, касающимся отдельных публикаций. Подчёркивается важность научной точности при международной презентации узбекского фольклора.

Ключевые слова: *Узбекский фольклор, эпос, Турция, научное сотрудничество, перевод, международная популяризация, Тура Мирзаев, Селами Федакар, Джаббор Эшонкулов.*

Folklorshunos Selami Fedakar “Milliy folklor” jurnalining 2004-yil 62-sonida e’lon qilingan “O‘zbekistonda doston bo‘yicha tadqiqotlar” maqolasida bu boradagi tadqiqotlarni uchga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi:

1. Chorlik davridagi tadqiqotlar;
2. Sho‘ro zamonidagi tadqiqotlar;
3. Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar[23].

Olim maqolasida quyidagi muhim va ayni paytda faxrlanishimizga arzigulik faktni turk o‘quvchilari bilan baham ko‘radi: “Prof. Dr. Töre Mirzayev’in verdiği bilgelere göre, Hadi Zarif Folklor Arşivinde 2000’e yakın folklorik malzeme mevcuttur. Bu malzemeler içinde, seksen cıvarında çeşitli destan metni bulunmaktadır. Destanların farklı anlatılarından derlenmiş eş metinleri de denil edildiğinde, söz konusu arşivde, üç yüzden fazla destan metni olduğu ifade edilmektidir.

Özbek destan geleneği içinde oluşturılmış destan metinlerinin derlenmesi, yayınlanması ve incelenmesinde Gazi Alim Yunusov, Büyük Kerimov, Hadi Zarifov, Maksud Şeyhzade, Mensur Afzalov, Şakir Süleyman, Yunus Sultanov ve Muzeyyene Alaviye, Ahuncan Sabirov, Töre Mirzayev, Kamilcan İmamov, Bahadır Sarımsakov, Melik Muradov ve Zübeyde Hüseyinova gibi bilim adamlarının büyük emekleri vardır”[24].

Tarjimasi:

“...Professor, doktor To‘ra Mirzayevning ma’lumotiga ko‘ra, Hodi Zarif nomidagi Folklor arxivida 2000 ga yaqin follor materiallari mavjud. Bu materiallar ichida sakson atrofida turli doston matnlari saqlanmoqda. Dostonning turli baxshilardan yozib olingan variantlari qo‘shilsa, bu arxivda uch yuzdan ortiq doston matni borligi ma’lum bo‘ladi...”[25]

[23] Qarang: Fedakar Selami. Özbekistan’da Destan Çalışmalarının Tarihçesi. The History of Epic Scholarship in Uzbekistan. Milli Folklor. 2004 yıl 16, Sayı 62. – S. 67-79.

[24] Ko‘rsatilgan manba. – 62-b.

[25] Iqtibosning davomida nomi tilga olingan olimlarning fidokorona mehnati e’tirof etilmoqda – A. T.

O‘zbek folklorining Turkiyada tarqalishi va targ‘ibida Selami Fedakar maqolasida tilga olgan olimlarimiz va o‘zbek folloriga oid boshqa folklorshunoslarning turkchada e’lon qilingan tadqiqotlari ham muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Biz bu boradagi ishlarga umumiy tavsif va ayrimlarining mazmun-mundarijasi haqida ma’lumot beramiz.

Turkiyada nashr etilgan dostonlarda ustoz To‘ra Mirzayevning turkchaga o‘girib taqdim etilgan So‘zboshilari ham o‘rin olgan. “Alpomish”, “Erali va Sherali” dostonlarining turkcha tarjimasi nashridagi So‘zboshilari turkiyalik olimlarning e’tibor va e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

“Milliy folklor” jurnalining bir sonida ustozning “Dostonlarning shohi” maqolalari folklorshunos Selami Fedokor tomonidan e’lon qilingan. Tarjimon maqola so‘ngida quyidagi muhim ma’lumotni keltirgan: “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy adabiyot instituti “Yozuvchi” nashriyoti bilan hamkorlikda to‘rt jildlik “Go‘ro‘g‘li” dostonlari” turkumi ilk marotaba to‘liq nashr ettirmoqda. Bugungacha 1-jild: “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” jildida Professor, doktor To‘ra Mirzayev yozgan So‘zboshining qisqartirilgan shaklidir”[26].

Folklorshunos Mamatqul Jo‘raevning “Ipak yo‘li afsonalari” kitobi turk tilida nashr etilgan. Shuningdek, olimning bir necha maqolalari ham Turkiyadagi nufuzli nashrlarda e’lon qilingan[27].

Ustoz folklorshunos Shomirza Turdimovning ham bir necha maqolalari turk tiliga tarjima qilingan. Ulardan biri nufuzli “Turk dunyosi injalamalari (tadqiqotlari)” jurnalida e’lon qilingan “O‘zbek “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlardagi Soqibulbul obrazi haqida” nomli maqoladir[28]. Maqola annotatsiyasida o‘qiymiz: “Bu makalede Özbek Köroğlu dairesi destanlarının başkahramanlarından biri olan Sakibülbülün, Özbek Köroğlu destanları arasındaki yeri, mitolojik ilkeleri, dil ve sanatsal özellikleri destanın farklı anlatıcılardan derlenen varyantlarının kullanılarak ayrıntılı bir şekilde incelenmiştir”. Ya’ni maqolada o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlaridagi bosh qahramonlardan biri – Soqibulbulning tutgan o‘rni, mifologik xususiyatlari, dostonlarning til va badiiyati turli variantlar asosida o‘ziga xos usulda yoritiladi”.

Maqolada Soqibulbul obraziga uch nuqtai nazardan baho beriladi:

---

[26] Destanların Şahı. Prof. Dr. Töre Mirzyev. Aktaran: Selami Fedakar. Milli Folklor. 2018 – S. 67-71. Maqola mutaxassislarga tanish bo‘lgani uchun uning mazmuni haqida to‘xtalmadik – A. T.

[27] Eunkyung Oh: Mamatkul Juraev. Alpamış Destanında Baysın Kelimesinden Görünen Kurt Totemi. Hacettepe Üniversitesi Türkiyet Araştırmaları (HÜTAD), 2011; Oh E., Joraev M. Tarihi Genetik Ortaklık ve Senkretik [= Bağdaştırmacı] Sanat Yaklaşımları Bağlamında Şaman ve Epik Küyci [= Ozan]. Folklor / Edebıyat. 2013; Juraev M. Oğuz-namede Mitolojik Motifler. Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler dergisi. 2018, – S. 49-60; Corayev M. Özbeklerin Rüzgar İle İlgili Mitolojik Tasavvurları. Haydar Kültü. Uluslararası Dördüncü Türk Kültürü Kongresi Bildirileri. – Ankara, 2000. – S. 4-7.

[28] Şamirza Turdimov. Özbek Köroğlu Dairesindeki Sakibülbül Sembolü Üzerine Düşünceler. Aktaran: Selami Fedakar.

1. Yo‘lboshlovchi (Yol Gösterici) Soqibulbul;
2. Soqiy (Sakı) Soqibulbul;
3. Sayis (Seyis) Soqibulbul.

O‘zbek follori haqida Turkiyada e’lon qilingan o‘zbek olimlarining tadqiqotlari ichida follorshunos Jabbor Eshonqulovning ishlari salmoqli o‘rin egallaydi.

Turkiya Hoji Bayram Veli universiteti Turk lahjalari va adabiyotlari kafedrasi professori Veli Savash tomonidan Jabbor Eshonqulovning “Mifik tafakkur takomili tomon” kitobi nashr etildi[29]. Kitobda olimimizning bir necha maqolalari o‘rin olgan.

Mazkur kitob nashr etilgunga qadar Turkiyada Jabbor Eshonqulovning qator maqola va tezislari e’lon qilingan edi[30].

Mazkur kitobda Jabbor Eshonqulovning jami 26 maqolasi o‘rin olgan. 18 maqola asliyati bilan birga berilgan. 8 maqola faqat Turkiya turkchasida. Kitob haqida turkiyalik yana bir zahmatkash olim Ismet Chetinning axborot maqolasi ham e’lon qilindi. Maqolada Ismet Chetin, jumladan, shunday yozadi: “Bilyinin Sınır tanımazlığı gibi akademisyenlerinde Sınır tanımazlığı söz konusudur. Bu Söz tanımazlığa güzel örneklerden biri Prof. Dr. Cabbar İşankul ve çalışmalarıdır”[31]. Ya’ni “Bilim chegara tanimagani kabi olimlarning ham ta’sir hududlari bepoyon. Bunga yorqin misollardan biri professor, doktor Jabbor Eshonqulov va uning tadqiqotlaridir.

Maqola muallifi o‘quvchi diqqatini kitobga so‘zboshi yozgan olim Savash Yelokning so‘zboshidagi quyidagi jihatlariga qaratadi: “folklorla ilişkisi sadece akademik faaliyetlerle sınırlı değil diri bu ilişki, onun çocukluğundan beri Kaşkaderya’nın dağlık Olma köyünde, bahşiların destanları ve termeleri arasında şekillenen bir sevdadır”. Ya’ni “folklorda aloqasi faqat ilmiy faoliyatlar bilan chegaralanmagan. Bu aloqalar bir muloqot uning bolaligidan beri Qashqadaryoning tog‘lik Olma qishlog‘ida baxshilarning dostonlari va termalari o‘rtasida shakllangan bir savdo(muhabbat)dir”.

Muhtaram olim Rahmatilla Barakaevning “XXI asrda Go‘ro‘g‘li va Bolu tadqiqotlari” xalqaro Go‘ro‘g‘li Bolu tarixi va madaniyati sempoziumida

---

[29] Cabbar İşankul. Mitolojik Tefekkürün Tekamülüne Doğru. Editör ve yayına hazırlayar: Veli Savaş. Yelak. Sonçağ Yayınları, Ankara, 2025. 519 s.

[30] Cabbar İşankul. Nevai ve Folklor: Özbek Bahşisi Fazıl Yoldaş oğlu’nun “Ferhed ve Şirin” Destanının Karşılaştırmalı Analizi. İlim ve Merifet Nurları. Prof. Dr. İbrahim Hakkul’a Armağan Kitabı. Karabük – 2020. – S. 161-166.; Cabbar İşankul. Destan ve Merasim (Edic and Ceremony). Prof. Dr. Abdurrahman Güzel’e Armağan. Ankara, 2004. – S. 387-393; Cabbar İşankul. “Kaybolan Cennetin Peşinde (Sümer ve Akad: Ütopya mı? Gerçek mi?)” Gazı Eğitim Fakültesi Dergisi. Cilt 22.3. Çev.: Veli Savaş Yelok. GÜ Gazı Eğitim Fakültesi, 2002. – S. 183-193; Cabbar İşankulov (2004). Özbekistan’da Nevruz Ananeleri”. Türk Dünyası Nevruz Ansiklopidesi. Ankara: AKM Başkanlığı. Cabbar İşankul (2010). Rüya ve Bilmace.

[31] Çetin İsmet. Mitolojiden Çağdaş Edebiyata: Mitolojik Tefekürün Tekamülüne Doğru. Türk Dili. Temmuz, 2005. – S. 133-135.

o‘qigan ilmiy ma’ruzasi “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida badiiy san’atlar: Yunus va Misqol pari” dostoni misolida (“Yunus Peri ve Miskal Peri Destanları Örneğinde Köroğlu Destanlarında Bedii Sanatlar”) haqida bo‘lgan[32].

Maqola muallifi fikrlarini dostondan keltirilgan misollar orqali yoritib beradi.

Xorazm dostonlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan Jumaboy Yusupov 2004 yilda o‘tkazilgan sempoziumda “Go‘ro‘g‘li ismi genezisi (Göroğlu Adının Kökeni Hakkında”) nomli ma’ruzasi bilan qatnashgan[33]. Olim Go‘ro‘g‘lining xorazm variantidagi “Go‘ro‘g‘li” ismining “go‘rda tug‘ilgan bola” ma’nosi bilan aloqasi yo‘qligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchi bunga o‘xshash qahramonlar Eski Yunon, Rum, Fors rivoyatlarida va Hind vedalarida uchrashi, binobarin, Go‘ro‘g‘li ismning “jasur” ma’nosidagi eski turkcha “kur” so‘zidan kelib chiqqanini ilgari surgan.

Boluda 2014-yil 26-28-sentyabr kunlari o‘tkazilgan ayni sempoziumda O‘zbekiston Respublikasi jahon tillari universiteti o‘qituvchisi Tohir Qahhor “O‘zbek Go‘ro‘g‘li” dostonlarida qirq yigit va qirq raqam bilan bog‘liq jihatlar” ma’ruzasi bilan ishtirok etgan[34].

Tohir Qahhorning, shuningdek, “O‘zbek “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida Go‘ro‘g‘lining yurti: Chambil” maqolasi Boluda o‘tkazilgan xalqaro anjuman materiallari majmuidan o‘rin olgan[35].

Jabbor Eshonqulov mazkur an’anaviy sempoziumda “Go‘ro‘g‘li” va turk dunyosi doston qahramonlari” mavzusida ma’ruza qilgan[36].

Turkiyada “Milliy folklor” ilmiy jurnali o‘zbek folklorini turk ilmiy jamoatchiligiga yetkazishda ancha faol.

1994-yil, bahor sonida A. Tilavovning “Suvdan chiqqan ot” maqolasi[37] Selami Fedakar tarjimasida e’lon qilingan. Maqolada dostonlarimizdagi ot obraziga xos mifik belgilar, uning suv va ko‘k-yulduz bilan bog‘liqligi haqidagi mifologik qarashlarning eposdagi badiiy ifodasi haqida so‘z boradi.

---

[32] Barakayev, Rahmatilla (2011). “Go‘ro‘g‘li Dostonlarida Badiiy San’atlar (“Yunus va Misqol Pari”Dostoni misolida” 21 Yüzyılda Köroğlu ve Bolu araştırmaları UluslararasıKöroğlu, Bolu Tarihi ve Kültüre Sempozyumu Bildirileri. Bolu. BAMER Yayınları, 9. S. 163-169.

[33] Jumabay Yusupov (2011). “Go‘ro‘g‘li ismi genezisi haqida / Göroğlu Adının Kökeni Hakkında”. 21. Yüzyılda Köroğlu ve Bolu araştırmaları Uluslararası Köroğlu Bolu Tarihi ve Kültüre Sempozyumu Bildirileri. Bolu: BAMER Yayınları: 9, s. 757-762.

[34] Kahhor, Tahir (2014) “Özbek Göroğlu destanlarında Kırk Yiğit ve Kırk Rakamı ile İlgili Yönler”. V. Uluslarası Bolu Tarihi, Kültürü ve Köroğlu Sempozyumu, 26-28 Eylül 2014, Bolu. Маъруза амтни эълон қилинмаган. Муаллиф бу ва шу йўналишдаги бир неча маъруза ва мақолаларини келгусида тўплам ҳолида нашр этиш истаги борлигини айтди – А. Т.

[35] Kahhor, Tahir (2015) “Özbek Göroğlu destanlarında Köroğlunun Yurdu: Çembel” IV. Uluslararası Bolu Halk Kültürü ve Köroğlu Sempozyumu. Ankara: Akçağ Yayınları, S. 561-572.

[36] Işankul Cabbor (2016), “Köroğlu Destanındaki Ana Motiflerin Karşılaştırılması. Bildiri Kitabı. İstanbul: RAMIR Yayınları, S. 561-572.

[37] Tilavov A. “Sudan Çıkıp Yıldıza”. Aktaran: Selami Fedakar. Milli Folklor 1994 yıl, Bahar. S 53-59.

Taassufki, Turkiyadagi o‘zbek folkloriga oid e’lon qilingan ishlarning barchasi yuqori ilmiy saviyada deya olmaymiz. Hatto bunday ayrim ishlar qardosh folklorshunoslarimizning ham mulohazalariga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, Rustamjon Jabborovning “Turk tarixida iz qoldirgan boluliklar” anjumanida qilgan “O‘zbek Go‘ro‘g‘li dostonlari va ularga oid tadqiqotlar” ma’ruzasi haqida[38] turkiyalik folklorshunos Selami Fedakar quyidagi mulohazalarini bildiradi: “Bir başka Özbek araştırmacı Rüstamjon Djabbarov’un “Türk Tarihinde iz Bolulular çalıştığında sunduğu “Özbek Köroğlu Destanları ve Onların Araştırılması” adlı bildirisinde Özbek Köroğlu dairesi destanları hakkında oldukça yüzeysel bilgiler vermiş ve bari Özbek bilim adamlarının Köroğlu anlatıları hakkında fikirlerinden alıntılar yapmıştır. Bildiri başlığı ile içeriye uygun değildir. Köroğlu destanı ile ilgili olarak Özbekistan’da yapılan pek çok araştırmadan bahsetmeden sınırlı sayıdaki araştırmaya sadece temas etmiştir. Bildirideki tek dikkat çekici nokta 19 yüzyılın ikinci yarısında yaşamış “Sultanmurad Şair ve “Nişan Ata” adlı Özbek bahşılarına dayanılarak 60 tane Özbek Köroğlu kollarının sırasıyla verilmiş olmasıdır. Bildirinin bu kadar yüzeysel olmasının sebebi yazarın bilim adamı değil, bir gezeteci olmasından kaynaklanıyor olmalıdır”[39].

“... Boshqa bir o‘zbek tadqiqotchisi Rustamjon Jabborovning “Turk tarixida iz qoldirgan boluliklar” anjumanida qilgan “O‘zbek Go‘ro‘g‘li dostonlari va ularga oid tadqiqotlar” nomli ma’ruzasida o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari haqida yuzaki ma’lumotlar berilgan va ba’zi o‘zbek olimlarining mavzuga oid fikrlaridan iqtiboslar keltirgan. Ma’ruza sarlavhasi bilan mundarijasi muvofiq emas. “Go‘ro‘g‘li” dostoni bilan bog‘liq O‘zbekistonda amalga oshirilgan juda ko‘p asosiy tadqiqotchilardan so‘z yuritmay, faqat sanoqli tadqiqotlarga havola berilgan xolos. Ma’ruzadagi yagona diqqatni tortuvchi xusus – XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan Sultonmurod shoir va Nishon Ota ismli o‘zbek baxshilariga suyanib 60 o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” silsilasi dostonlari nomini berganidir. Ma’ruzaning bu qadar yuzaki ekanining sababi – muallifning olim emas, jurnalist ekani bilan bog‘liq bo‘lishi kerak”.

Kezi kelganda alohida ta’kidlamoqchimizki, xorij matbuotiga taqdim etilayotgan har bir material borasida tadqiqotchilarimiz o‘ta hassos, e’tiborli bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir. Materiallarning mukammal, ilmiy-nazariy jihatdan puxtaligi o‘zbek folklori va folklorshunosligi haqida xorijda yorqin taassurot qoldirishining muhim omillaridandir.

---

[38] Djabbarov, rustamjon (2015). “Özbek Köroğlu Destanları ve Onların Araştırılması”. Türk Tarihinde 12 Bırakan Bolulular Çalıştayı Bildirileri, Bolu: AİBÜ Yayını, S. 211-216.

[39] Fedakar Selami. Özbek Köroğlu Destanları Hakkında Türkiye’de Yapılan Çalışmalar. – S. 317.

MUNDARIJA

So‘z boshi 3

Botir Matyaqubov. Doston va maqom..... 5

O.M.Axmedova. Sherobod dostonchilik maktabi va uning ilmiy o‘rganilishi..... 17

Eshnazar Jabborov. Jahon ma’rifatchilik adabiyotida xalq dostonlarining ma’rifiy o‘rni..... 27

Ravshan baxshi Mamatmuratov. Boboraim baxshi Mamatmuratovning “Sarvigul” dostonida qo‘llanilgan saj’ usulining qofiyalardagi izchilligi..... 37

Ahmedov Hakim Yarashevich. “Alpomish” dostoni matnidagi frazeologik birliklarning mavzuiy tasnif..... 42

Nabiyeva Nodira Saidovna. Sog‘inch va hijron mavzusidagi she’rlarda lirik kechinmaning badiiy-tasviriy ifodasi (H.Ahmedova she’riyati misolida)..... 48

Abdumurod Tilavov. O‘zbek olimlari – O‘zbek folklorining turkiyadagi targ‘ibotchilari..... 53

Bozorov Hamid Xo‘shmurodovich. O‘zbek xalq ertaklarining lingvistik tadqiqi..... 59

Tangirqulova Ra’no Xo‘shboqovna. Baxshichilik san’atining yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi o‘rni..... 66

Davletmuratova Amangul. Folklor va tarix chorrahasida: baxshichilik fenomeni..... 71

Saida Kadirova. Qo‘shiq va terma janrlarining tarixiy, struktural-poetik talqini..... 76